

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA ONA TILI VA O'QISH  
SAVODXONLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING DIDAKTIK ASOSLARI

Mo'minova Marhabo

Guliston davlat pedagogika instituti o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13895026>

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada boshlang`ich sinf o`quvchilariga ona tili va o`qish savodxonligi fanlarini o`qitishning zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishda didaktik asoslarning o`rni xususida so`z yuritiladi. Shuningdek sohalarga oid misollar ko`rib chiqiladi, matn bilan ishlash ko`nikmalarini rivojlantirish masalalari yoritiladi hamda tahlil olib boriladi.

*Kalit so`zlar:* didaktik o`yinlar texnologiyasi, interfaol metod, kombinatsiya, o`quv-bilish faolligi, innovatsion prinsip, shakldosh va ma`nodosh so`zlar.

DIDACTIC PRINCIPLES OF IMPROVING MOTHER LANGUAGE AND READING  
LITERACY IN PRIMARY CLASS STUDENTS

*Abstract.* This article discusses the role of didactic foundations in the introduction of modern pedagogical and information communication technologies for teaching native language and reading literacy to elementary school students. Also, examples related to fields are considered, the issues of developing skills of working with text are highlighted and analysis is carried out.

**Key words:** technology of didactic games, interactive method, combination, learning activity, innovative principle, similar and meaningful words.

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ РОДНОЙ ЯЗЫКА И  
ЧИТАТЕЛЬНОЙ ГРАМОТНОСТИ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

*Аннотация.* В статье рассматривается роль дидактических основ во внедрении современных педагогических и информационно-коммуникативных технологий обучения родному языку и читательской грамотности учащихся начальных классов. Также рассматриваются примеры, связанные с областями, освещаются вопросы развития навыков работы с текстом и проводится анализ.

**Ключевые слова:** технология дидактических игр, интерактивный метод, комбинирование, учебная деятельность, инновационный принцип, сходные и содержательные слова.

---

KIRISH

Bugungi kun shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir paytda boshqa sohalar kabi ilm-fan

sohasi ham rivojlanishlarni, bidimlarni yangicha qarashlar bilan o‘rganishni talab etmoqda. Bu esa o‘z navbatida, har bir fanga doir yangicha metodologik prinsiplarni, yangicha ta’lim texnologiyalarini kashf etish, rivojlantirishni taqozo qilmoqda.

Ona tili fanidan davlat ta’lim standartlari – DTSning malaka talablari bo‘yicha o‘quvchi shaxsida shakllantirilajak o‘z-o‘zini jismoniy, ma’naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish; kamolotga intilish, mustaqil o‘qib-o‘rganish; nutqiy kommunikativ kompetensiyasini muntazam oshirib borish; o‘z bilimi, xatti-harakatini baholash va mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyasini egallash, til imkoniyatlaridan foydalangan holda fikrni to‘g‘ri, ravon bayon eta olish qobiliyatini rivojlantirish kabi me’yorlarga alohida e’tibor qaratilgan [2].

### **ADABIYOTLAR SHARHI**

Nazariy tahlil “nutq” tushunchasiga mavjud tilshunoslik, pedagogik, psixologik hamda metodik adabiyotlarda turlicha izohlar berilganligini ko‘rsatdi. Xususan, “Pedagogik ensiklopedik lug‘at”da nutq “insonlarning til vositasida amalga oshiriladigan muloqot (kommunikatsiya) shakli bo‘lib, u fikrni ifodalash vositasi bo‘lishi bilan birga fikrlashning asosiy mexanizmi” [4, 15-b.], “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da nutq deganda uning og‘zaki (ovozli) va yozma ravishda namoyon bo‘lishidagi jarayonlar, ya’ni so‘zlash jarayoni va uning natijasi (xotirada saqlangan yoki yozuvda qayd etilgan nutqiy fikrlar, asarlar)” [6, 424-425-b.], deya e’tirof etiladi. Psixologlar tomonidan nutq “odam tomonidan ijtimoiy-tarixiy tajribani o‘zlashtirish va avlodlarga berish yoki o‘zaro aloqa o‘rnatish yoki o‘z harakatlarini rejalashtirish maqsadida tildan foydalanish jarayoni” [5, 192-b.], deb ta’riflangan. Metodik olimlar tomonidan nutq “kishi faoliyatining turi, til vositalari (so‘z, so‘z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solish” sifatida ham talqin etilgan. Bir so‘z bilan aytganda, nutq ijtimoiy sub’ektlarning til vositasida amalga oshiriladigan faoliyat turidir.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

“O‘qish kitobi” darsliklarida berilgan matnlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutq ko‘nikmalarini shakllantirishda vosita hisoblanadi. Boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslarining asosiy maqsadi o‘quvchilarni matn mazmunini to‘g‘ri tushunish, ongli va ifodali o‘qiy olish, matnda berilgan axborotni idrok qilish, matnda ifodalangan voqelikka nisbatan munosabat bildirishga tayyorlashdir. Shunga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi metodik tayyorgarlikni darsning maqsadi, o‘rganilayotgan materialning mazmuni, o‘quvchilarning mavjud bilim, ko‘nikma, malakalari darajasiga ko‘ra amalga oshiradi. O‘quvchilarni asar matnini o‘qishga tayyorlashda, birinchi navbatda, ularni matn mavzusi, tili, g‘oyaviy mazmuni va badiiy-estetik qiymati bilan tanishtirish, matn mazmunidan tegishli xulosa chiqarishga e’tibor qaratiladi. O‘qish

faoliyati ham nutqning alohida ko‘rinishi hisoblanadi.

O‘quvchining o‘z fikrini qanchalik mazmunli, aniq va to‘g‘ri ifodalay olishi uning o‘quvbilish faolligi darajasini, ko‘nikma va malakalarini aniqlashga imkon beradi. O‘qish darslarida matnni idrok qilish va mazmun-mohiyatini o‘zlashtirish yuzasidan qo‘yilgan savol va topshiriqlar o‘quvchilarni o‘ylashga majbur qilishi, javob berishda muallif qo‘llagan iboralardan, badiiy tasvir vositalaridan foydalanishga qaratilishi, nutqda ko‘proq o‘zi uchun yangi so‘z va iboralarni ishlatishga undashi lozim.

Matnni o‘qish ko‘nikmasiga egalik, o‘z navbatida, o‘quvchi nutqini boyituvchi muhim omillardanbiri sanaladi.

Boshlang‘ich ta’limga oid “Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlari”da “O‘qish” darslari oldiga qo‘yiladigan didaktik talablar o‘quvchilar e’tibori nimani o‘rganish va nimani esda saqlab qolish kerak ekanligiga qaratilishidan boshlanadi.

Matn ustida ishlash orqali o‘quvchilarni ijodiy, mustaqil va mantiqiy mushohada yuritishga, matnni tahlil qilish va unga o‘z munosabatini bildira olishga o‘rgatish o‘qituvchidan katta mahorat talab etadi.

Zamonaviy metodlarning eng asosiyлари sifatida quyidagi metodlar e’tirof etilganligi hammamizga ma’lum: modulli ta’lim texnologiyasi, hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi, muammoli ta’lim texnologiyasi, interfaolmetod texnologiyasi, didaktik o‘yinlar texnologiyasi va sinov darslari.

Bular innovatsion metodlardir.

**Ta’lim jarayonida didaktik o‘yinlarni qo‘llash vositasida** o‘quvchilarda faol harakat va qiziqish uyg‘otiladi. Ta’lim jarayoni, uning rivojlanishi va samarali kechishi ko‘p jihatdan o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro ishonchi asosida qurilgan ochiq muloqotiga bog‘liq. Dars jarayonidagi o‘yinlar esa bu muhitni mustahkamlashda asosiy rol o‘ynaydi. O‘yinlar guruhlarda ishlab mashq qilishga odatlantiradi va uncha ko‘p vaqtini olmaydi. Jamoaviy ishlash davomida o‘quvchilar faolligi oshadi va darsga nisbatan diqqat-e’tibori kuchayadi. O‘yinlar vositasida o‘quvchilarga yangi bilim berish, ko‘nikma hosil qilish, kichik guruh a’zolarining ijodiy qobiliyatlarini rag‘batlantiradi. O‘yinlarni asosan darsning kirish yoki yakuniy qismida o‘tkazish maqsadga muvofiqligi qo‘llanmalardan ma’lum. O‘yinlarni maqsadiga binoan turlarga ajratish mumkin:

**«So‘zdan so‘z top» o‘yini.** Bu o‘yinda bir so‘zdan bir necha so‘zlar keltirib chiqarish talab qilinadi. Bu o‘yin turi o‘quvchilarni fikrlashga, izlanishga undaydi, ularda topqirlik qobiliyatini yuzaga chiqaradi. Bu o‘yinni aynan takrorlashdan qochib, ma’lum bir mavzuga bog‘liq holda

o‘tkazish yo‘llari xususida fikr yuritamiz.

Berilgan so‘z tarkibidagi harflarning turli kombinatsiyasidan foydalanib, bir necha so‘zlar hosil qilish mumkin. Demak, bu o‘yinni ma’lum bir mavzu bilan bog‘liq holda o‘tkazsa ham bo‘ladi. «So‘zdan so‘z» o‘yinidan tilning barcha sathlarini o‘qitishda foydalanish mumkin.

Jumladan, leksikologiya bo‘limida shakldosh, zid ma’noli so‘zlar mavzularini o‘rganishda bu o‘yindan foydalanish mumkin. Buning uchun o‘qituvchi shakldosh yoki zid ma’noli so‘zlarni keltirib chiqarish mumkin bo‘lgan so‘zлarni tanlay bilishi va shunday keyingina ularni o‘quvchilar e’tiboriga havola qilishi lozim. Omonim (shakldosh) so‘zlar mavzusi o‘rganilgach, o‘quvchilarga quyidagi so‘zлarniberish va ulardan shakldosh so‘zлarni keltirib chiqarish vazifasi topshiriladi.

**Gulhamishabahor, tutqich, chekinmoq.** *Tutqich* so‘zidan *tut* (tutmoq fe’li, mevali daraxt), *chek* (chekmoq fe’li, chek patta, ...) ishtirokida shakldoshlik xususiyatiga ega bo‘lgan so‘zлarni keltirib chiqarish mumkin. Bundan tashqari, bittagina *gulhamishabahor* so‘zidan *or, ur, hamisha, ham, bashara, gul, ruh, baho, bu, hashar, hamishabahor* so‘zлarni yasash mumkin.

## XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa qilib aytganda, bugungi har qanday zamonaviy pedagogik texnologiyalar o‘z mohiyatiga ko‘ra ta’lim oluvchilarda o‘quv-bilish faolligini oshirish, ularni kichik guruh va jamoa holida ishslash, o‘rganilayotgan mavzu, muammolar bo‘yicha shaxsiy qarashlarini dadil, erkin ifodalash, o‘z fikrlarini himoya qilish, dalillar bilan asoslash, tengdoshlarini tinglay olish, g‘oyalarni yanadaboyitish, bildirilgan mayjud mulohazalar orasidan eng maqbul yechimni tanlab olishga rag‘batlantirish imkoniyatiga egaligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, bugungi zamonaviy metodlar bugungi ta’lim tizimidagi yangi istiqbolli yo‘nalish sifatida qaralmoqda. O‘quvchi-talabayoshlarni ijodiy fikrlashga undovchi, biror bir mavzu haqidagi bilimlarni atroflicha egallash va tushunchalar hosil qilishda kattagina ahamiyat kasb etadi.

## REFERENCES

1. Safarova R., Musaev U., Musaev P., Yusupova F., Nurjanova R. O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rtta ta’lim strategiyasi muammolari va ta’lim mazmunining yangi modellari, ularni tatbiqetish yo‘llari. – T.: “Fan”, 2015. – 85-86-b. Safarova R., Musaev U., Musaev P., Yusupova F., Nurzhanova R. Problems of general secondary education strategy and new models of educational content in the Republic of Uzbekistan, ways of their implementation. - T.: "Fan", 2015. - pp. 85-86. Сафарова Р., Мусаев У., Мусаев П., Юсупова Ф., Нуржанова Р. Проблемы стратегии общего среднего образования и

новые модели содержания образования в Республике Узбекистан, пути их реализации. — Т.: «Фан», 2015. — С. 85-86.

2. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Т.: "Fan", 2018. – 160 б. Yoldoshev M. Lingupoetics of literary text. - Т.: "Fan", 2018. - 160 р. Юлдошев М. Лингвопоэтика художественного текста. – Т.: «Фан», 2018. – 160 с.
3. Usmonov S. Boshlang'ich sinflarda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishningpedagogik asoslari: Ped. fanl. nomz diss. avtoref. – Т.: 2014. – 24 б. Usmanov S. Pedagogical foundations of organizing spiritual and educational work in primary grades: Ped. science nomz diss. autoref. - Т.: 2014. - 24 р. Усманов С.В. Педагогические основы организации духовно-воспитательной работы в начальных классах: Пед. наука номз дисс. автореф. - Т.: 2014. - 24 с.
4. Tarbiya / Ota-onalar va murabbiylar uchun ensiklopediya. Tuzuvchi M.N.Aminov, mas'ul muharrir A.M.Majidov. – Т.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2010. – 528 б. Education / Encyclopedia for parents and teachers. Compiler M.N. Aminov, responsible editor A.M. Majidov. - Т.: "National Encyclopedia of Uzbekistan", 2010. - 528 р. Образование / Энциклопедия для родителей и учителей. Составитель М. Н. Аминов, ответственный редактор А. М. Меджидов. – Т.: «Национальная энциклопедия Узбекистана», 2010. – 528 с.
5. Maftuna, G. (2023). SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF METHODICAL TRAINING OF PRIMARY SCHOOL TEACHERS FOR LOGICAL THINKING. Modern Science and Research, 2(10), 91-94.